Keyinchalik yaratilgan "Qissai Temur" ("Malfuzoti Temuriy"), "Temur qissasi" va Toshkentlik tarixchi Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" (1908) asarida Takina xotun hayotiga oid ayrim ma’lumotlar mavjud. "Temurnoma"da bo’lajak sohib-qiron Amir Temurning tavallud topish (1336-yil 9 aprelda) tafsilotlari taqdirning ilohiy hukmi sifatida tasvirlangan. Amir Temurning kelajakda buyuk inson bo’lib yetishuvida onasining hissasi katta bo’lgan. Takina xotun erining vafotidan ancha avval qazo qilgan (1353).

Sohibqiron Amir Temur keyinchalik onasi va otasi dafn etilgan Keshdagi oilaviy xilxona ustida muhtasham maqbara qurdirgan. Amir Temur katta o’g’li Jahongir Mirzo 20 yoshida vafot etgach (1376), uni ota-onasining qabri yonida dafn etgan. Sohibqiron onasi xotirasiga atab, Keshda mashhur Oqsaroyini bunyod ettirgan.[6. B. 235]

Qutlug’ Turkon og’o (1331 1383) — Amir Temurning opasi. Amir Dovudbek dug’latning xotini. Sohibqiron 1360 yillarning boshlarida g’animlari ta’qibi tufayli Samarqandga kelib Qutlug’ Turkon Og’o uyida 48 kun turgan. 1375 yil Sohibqiron O’zganda Dilshod og’oga uylangan chog’da Qutlug’ Turkon Og’o no’yonlar va amirlar bilan to’yga yetib kelgan.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, 1383 yil Dilshod og’o vafotidan bir necha kun o’tgach, “o’zining xayrli ishlari, in’omu ehsoni bilan zamonasi xotinlaridan o’zgan, o’z xolis mollaridan madrasalar, xonaqohlar qurdirgan, har nav ezguliklari bilan jahon xalqiga foyda yetkazgan ulug’ xotun — Amir Sohibqironning opasi” Qutlug’ Turkon og’o vafot etgan. Sohibqiron bundan qattiq iztirobga tushgan. Bir necha muddat mamlakat va davlat ishlari bilan shug’ullanmay qo’ygan. Qutlug’ Turkon Og’o nihoyatda dono va zakovatli ayol bo’lgan. Amir Temur barpo etgan ko’p binolar uning maslahati bilan ishlangan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, “uning qabrini... Qusam ibn Abbosning mazoriga yaqin qazdilar va qo’yidilar».[7.]

Xulosa qilib aytganda Amir Temurning adolati shundaki, u har ishni o’z qarichi bilan emas, balki qonunlar asosida, xususan, Qur’oni Karimga asoslanib, insoniylik nuqtai nazaridan kelib chiqib hal etdi va birinchi navbatda, norasida go’daklarni avaylab, olim va adiblarni, hunarmandlarni himoyasiga oldi, davlatni yulgichlardan, o’g’ri va kazzoblardan saqlab, hech qachon va hech qaerda bironing haqqiga ko’z olaytirmadi, "qaerdan bir g’isht olgan bo’lsa, o’rniga o’ntasini qo’yidirdi", "qaerda bir daraxt kestirgan bo’lsa, o’rniga o’nta nihol o’tqazdi", "chaqaloqlarni yig’latmangiz, bu gunohi azimdur", "urushning hech keragi yo’q" degan zot ham Amir Temurdir. Amir Temurning tabiatan og’ir – bosiq, teran fikrlovchi va nihoyatda idrokli hamda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson

bo‘lishiga otasi Muhammad Tarag‘ay bahodir, onasi Takina xotun hamda Piri va ustozi bo‘lgan Shayx Shamsuddin kulolning roli juda katta bo‘lgan. Rassom Dilshod Azizov o‘z asarida ushbu jihatlarni ko‘rsatishga harakat qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Temur – Abdulahad Muhammadjonov Toshkent “Abu Matbuot – Konsalt” 2011. 5-6 bet
2. Amir Temur tarixi- Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. I kitob. Ibn Arabshoh. “Fan” nashriyoti Toshkent – 2018. 70-bet.
3. Temuriylar shajarasi. Turg‘un Fayziev Toshkent.”Yozuvchi” nashriyoti – “Xazina” 1995. 13-14 bet
4. „Shamsuddin kulol“, [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi \(Sh-harfi\)](#). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar. 27 bet
5. Amir Temur – Abdulahad Muhammadjonov Toshkent “Abu Matbuot – Konsalt” 2011. 5-6 bet
6. [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi](#). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.
7. [tavorix.islamonline.uz](http://tavorix.islamonline.uz)

## ARTHROSPIRA PLATENSIS SUVO‘TINING BIOMASSA MIQDORIGA PAST HARORATNING TA’SIRI

**Qobilov Aziz Muxtorovich**

*Buxoro davlat universiteti dotsenti*

[a.m.qobilov@buxdu.uz](mailto:a.m.qobilov@buxdu.uz)

**Ikromova Hafiza Salim qizi**

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

[h.s.ikromova@buxdu.uz](mailto:h.s.ikromova@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Yashil hamda ko‘k-yashil suv‘tlari yorug‘lik ta’sirida anorganik moddalardan organik moddalar sintezlaydi. Ushbu sintezlangan ozuqa moddalar har xil suvo‘t turlarida turlicha miqdorda hosil bo‘ladi. Asosan ozuqaviy moddalarning hosil bo‘lishiga tashqi muhit omillari ham bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Jumladan, yorug‘lik, harorat, havo tarkibi, suv tarkibi, zichlik va boshqalar. Bu abiotik omillar suvo‘tlarning fotosintetik faoliyatiga ta’sir etib biomassa miqdorining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** sof hosildorlik, harorat diapazon, gomont, biomassa yo‘qotilishi, modifikatsiya, qorong‘u davr.

**Аннотация:** Зеленые и сине-зеленые водоросли синтезируют органические вещества из неорганических под воздействием света. Количество синтезированных питательных веществ различается у разных видов водорослей. Внешние факторы окружающей среды также напрямую влияют на производство питательных веществ. Например, свет, температура, состав воздуха, состав воды, плотность и т. д. Эти абиотические факторы влияют на фотосинтетическую активность водорослей, вызывая изменения в количестве биомассы.

**Ключевые слова:** чистая продуктивность, температурный диапазон, гомомонт, потеря биомассы, модификация, темный период.

**Abstract:** Green and blue-green algae synthesize organic substances from inorganic substances under the influence of light. These synthesized nutrients are produced in different amounts in different types of algae. External environmental factors also directly affect the production of nutrients. For example, light, temperature, air composition, water composition, density, etc. These abiotic factors affect the photosynthetic activity of algae, causing changes in the amount of biomass.

**Keywords:** net productivity, temperature range, homomont, biomass loss, modification, dark period.

**Kirish.** Buxoro viloyati kollektorlarida ko‘p turdagi tuban o‘simliklar o‘sadi. Ular son jihatdan bir-biridan farqlanadi. Ularning turli kollektorlarda sonining turlicha bo‘lishiga sabab suvdagi muhitning farqlanishi hisoblanadi. Suvning abiotik omillari bevosita suvo‘tlar hayotiga ta‘sir qiladi. Jumladan, suvdagi harorat, zichlik, pH ko‘rsatkichi, yorug‘lik miqdori, suvdagi tuz konsentratsiyasi, bosim va boshqalar. Ushbu tashqi muhit omillari suvo‘tlarning hayotini belgilab beradi. Ayrim kollektorlarda yashil suvo‘tlar ko‘p miqdorda bo‘lsa, boshqa bir kollektorlarda ko‘k-yashil suvo‘tlari ko‘p miqdorda uchraydi. Kollektorlarda aynan ko‘k-yashil suvo‘t turlarining ko‘p miqdorda uchrashining asosiy sabablaridan biri suvdagi pH ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishidir. Chunki *Cyanophyta* bo‘limi vakillari *Chlorophyta* bo‘limi vakillariga nisbatan yuqori pH ga chidamlilikka ega.

**Material va metodlar.** Ushbu tadqiqotlar doirasida olib borilayotgan ma‘lumotlardan foydalanish uchun O‘zbekiston ilmiy-ommabop jurnallarga murojat qilingan. Ushbu mavzu bo‘yicha nashr etilgan adabiyotlarning ko‘pligi, olib borilayotgan ishlarning keng ko‘lamli ekanligi va ularning soni keltirilishi cheklanganligi sababli ushbu maqola uchun mavjud adabiyotlarning faqat bir qismi tanlangan.

**Natija va tahlillar.** Tungi past harorat ta‘sirida *Arthrospira platensis* suvo‘tining biomassa hosil qilishi kam. Tunda yetarlicha biomassa hosil qilish uchun ochiq sharoitlarda issiq muhitni tayyorlash qiyin hisoblanadi. *Arthrospira platensis* ning sof mahsuldorligiga ( gr quruq vazn L<sup>-1</sup> kun<sup>-1</sup>) qorong‘u davr haroratining (10-35 °C ) ta‘sirini baholash uchun yarim-uzluksiz kultivatsiya tajribalari o‘tkazilgan [1]. *Arthrospira platensis* gomont oziq moddalarga boy bo‘lib, uning tarkibida oqsil miqdori 60-70% ni tashkil qiladi [2]. Bu tur yuqori pH (9.8-10) va yuqori erigan anorganik uglerod (DIC) konsentratsiyasi (0.23-1.1mol L<sup>-1</sup>) sharoitida yaxshi o‘sadi [3]. Ushbu o‘ziga xos xususiyatlar boshqa suvo‘tlar bilan ifloslanish ehtimolini kamaytiradi va shu sababli u odatda ochiq suv havzalarida yetishtiriladi [4]. Ochik sharoitlardagi kultivatsiyada sovuq tunlarda harorat 2 soat ichida taxminan 10 °C ga pasayadi [5] va bu muhitdagi haroratni qayta ko‘tarish qiyinchilik tug‘diradi. *Arthrospira platensis* ni ochik sharoitda yetishtirishda optimal o‘sish harorati bo‘lgan 35 °C ni saqlab turish qiyin [6,7]. Qorong‘u vaqtdagi harorat sianobakteriyalarning fotosintez jarayoniga sezilarli darajada ta‘sir qiladi. Masalan, *Haematococcus lacustris* yashil suvo‘ti ustida o‘tkazilgan tajribada qorong‘u davr harorati 8 °C bo‘lganda biomassa konsentratsiyasi 28 °C ga nisbatan 30% ga past bo‘lgan. Qorong‘u davr haroratining sof hosildorlikka ta‘sirini ko‘rib chiqishda 2 omil muhim: kunduzgi hosildorlik va tungi biomassa yo‘qotilishi. Sof hosildorlik - bu yorug‘lik va qorong‘u davrlar davomida hosil bo‘lgan umumiy biomassa o‘sishi bo‘lib, u kunduzgi biomassa hosil bo‘lishi va tungi biomassa yo‘qotilishini o‘z ichiga oladi. Ayrim tadqiqotlarda qorong‘u davr haroratini pasaytirganimiz ma‘qul, chunki tungi biomassa yo‘qotilishi

kamayadi deb ta'kidlanadi [8,9]. Boshqa tadqiqotlar esa tungi past harorat ta'sirida sof hosildorlik kamayishini ko'rsatadi. Kunduzgi hosildorlik qorong'u davr harorati pasayganda kamayishga moyil bo'ladi. Masalan, Zitteli va boshqalar ochiq sharoitdagi harorat 12-13 °C dan pastga tushganida sof hosildorlik kamayganini qayd etgan [5]. Bu kamayish past haroratda oqsil sintezining susayishi bilan bog'liq deb hisoblanadi. Fotosintez qiluvchi mikroorganizmlar tunda oqsillarni sintez qiladi va kunduz davomida zararlangan fotosintetik tizimlarni tiklaydi [10-11]. Oldingi tadqiqotlardan birida qorong'u davrda past harorat oqsil sintezini susaytirishi aniqlangan [12] va bu holat kunduzgi mahsuldorlikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin deb qaraladi. Boshqa tomondan esa, qorong'u davr harorati pasayganda tungi biomassa yo'qotilishi kamayadi. Tungi biomassa yo'qotilishi - bu organizmda to'plangan fotosintez mahsulotlarining nafas olish va hayotiy faoliyatni saqlash jarayonida sarflanishi natijasida biomassa miqdorining kamayishidir. Tungi biomassa yo'qotilishining kattaligi ko'pincha biomassa konsentratsiyasiga nisbatan foiz (% biomassa) ko'rinishida ifodalanadi. Ma'lum qilinishicha, qorong'u davr haroratini pasaytirish tungi biomassa yo'qotilishini kamaytiradi. Masalan, Torzillo [20] tajribada faqat qorong'u davr haroratini 35°C dan 25°C ga tushirgan va 25°C da tungi biomassa yo'qotilishi 4.1% ni tashkil etib, 35°C dagi 6% ga nisbatan past bo'lgan. Tungi biomassa yo'qotilishi turli suvo'tlarda, jumladan, *A.platensis* [13], *Ch.sorokiniana* [14], *Ch.pyrenoidosa* [9,15], *H.locustris* [8], *Nannochloropsis salina* [14] va *Picochlorum sp.* [14] da qayd etilgan. Demak, qorong'u davr harorati *A.platensis* turida sof mahsuldorlikka 2 jihatdan - kunduzgi mahsuldorlik va tungi biomassa yo'qotilishi orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Xulosa.** So'nggi so'z o'rnida shuni aytish joizki, suvo'tlarning hayotini faqatgina ularning yashash muhiti bo'lgan suv muhiti ta'minlab bermas ekan. Ularning hayotiga bevosita qolgan abiotik omillar ham ta'sir ko'rsatar ekan. Ayniqsa, suvdagi harorat ularda kechadigan asosiy fotosintez jarayoniga ta'sir qiladi. Chunki fotosintez jarayonida sodir bo'ladigan o'nlab reaksiyalar sodir bo'lishida bir qancha fermentlar ishtirok etadi. Fermentlar esa oqsil tabiatli moddalar bo'lib ularning faoliyat ko'rsatishi bevosita harorat o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Shuning uchun ham suvo'tlarning turlarini ajratib olish va ko'paytirish biotexnologiyasida ularning harorat chidamliligini aniqlash zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kenji Tanaka, Masatoshi Kishi, Hirut Assaye, Tatsuki Toda. Low temperatures in dark period affect biomass productivity of a cyanobacterium *Arthrospira platensis*. *Algal Research* 52 (2020) 102132. <https://doi.org/10.1016/j.algal.2020.102132>.

2. G.Aiello, Y.Li, G.Boschin, C.Bollati, A.Arnoldi, C.Lammi. Chemical and biological characterization of spirulina protein hydrolysates: focus on ACE and DPP-IV activities modulation, *J.Funct. Foods* 63 (2019) 103592, <https://doi.org/10.1016/j.jff.2019.103592>.
3. M. Kishi, T. Toda, Carbon fixation properties of three alkalihalophilic microalgal strains under high alkalinity, *J. Appl. Phycol.* 30 (2018) 401–410, <https://doi.org/10.1007/s10811-017-1226-z>.
4. A.Belay, *Spirulina (Arthrospira): production and quality assurance*, in: *Spirulina Hum. Nutr. Heal*, CRC Press, 2007, pp. 15-40.
5. G.C. Zittelli, V. Tomasello, E. Pinzani, M.R. Tredici, Outdoor cultivation of *Arthrospira platensis* during autumn and winter in temperate climates, *J. Appl. Phycol.* 8 (1996) 293–301, <https://doi.org/10.1007/bf02178572>.
6. M. Kishi, T. Toda, Carbon fixation properties of three alkalihalophilic microalgal strains under high alkalinity, *J. Appl. Phycol.* 30 (2018) 401–410, <https://doi.org/10.1007/s10811-017-1226-z>.
7. M. Kumar, J. Kulshreshtha, G.P. Singh, Growth and biopigment accumulation of cyanobacterium *Spirulina platensis* at different light intensities and temperature, *Braz. J. Microbiol.* 42 (2011) 1128–1135, <https://doi.org/10.1590/S1517-83822011000300034>.
8. J.C. Ogbonna, H. Tanaka, Night biomass loss and changes in biochemical composition of cells during light/dark cyclic culture of *Chlorella pyrenoidosa*, *J. Ferment. Bioeng.* 82 (1996) 558–564, [https://doi.org/10.1016/S0922-338X\(97\)81252-4](https://doi.org/10.1016/S0922-338X(97)81252-4).
9. E.M.Grima, J.A.S. Perez, F.G.Camacho, J.M.F.Sevilla, F.G.A.Fernandez, J.U.Cardona. Biomassa and icosapentaenoic acid productivities from an outdoor batch culture of *Phaeodactylum tricorutum* UTEX 640 in an airlift tubular photobioreactor, *Appl. Microbiol. Biotechnol.* 42 (1995) 658-663.
10. D.J. Kyle, I. Ohad, C.J. Arntzen, Membrane protein damage and repair: selective loss of a quinone-protein function in chloroplast membranes, *Proc. Natl. Acad. Sci.* 81 (1984) 4070–4074, <https://doi.org/10.1073/pnas.81.13.4070>.
11. G. Torzillo, A. Sacchi, R. Materassi, Temperature as an important factor affecting productivity and night biomass loss in *Spirulina platensis* grown outdoors in tubular photobioreactors, *Bioresour. Technol.* 38 (1991) 95–100, [https://doi.org/10.1016/0960-8524\(91\)90137-9](https://doi.org/10.1016/0960-8524(91)90137-9).
12. S. Jensen, G. Knutsen, Influence of light and temperature on photoinhibition of photosynthesis in *Spirulina platensis*, *J. Appl. Phycol.* 5 (1993) 495–504, <https://doi.org/10.1007/BF02182508>.

13. G. Torzillo, A. Sacchi, R. Materassi, A. Richmond, Effect of temperature on yield and night biomass loss in *Spirulina platensis* grown outdoors in tubular photobioreactors, *J. Appl. Phycol.* 3 (1991) 103–109, <https://doi.org/10.1007/BF00003691>.
14. S.J. Edmundson, M.H. Huesemann, The dark side of algae cultivation: characterizing night biomass loss in three photosynthetic algae, *Chlorella sorokiniana*, *Nannochloropsis salina* and *Picochlorum* sp, *Algal Res.* 12 (2015) 470–476, <https://doi.org/10.1016/j.algal.2015.10.012>.
15. F. Han, W. Wang, Y. Li, G. Shen, M. Wan, J. Wang, Changes of biomass, lipid content and fatty acids composition under a light-dark cyclic culture of *Chlorella pyrenoidosa* in response to different temperature, *Bioresour. Technol.* 132 (2013) 182–189, <https://doi.org/10.1016/j.biortech.2012.12.175>.

## ELBEK – MASALNAVIS

**Gulshoda Butunboyeva,**

GulDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: prof.

**O.Fayzullayeva**

### Annotatsiya

Mazkur maqolada jadid ijodkorlaridan biri bo‘lgan Elbekning masalnavislik mahorati xususida so‘z yuritilgan. Shunindek, Elbek yaratgan masallarning badiiy xususiyatlari, ularning mazmun-mohiyatiga ham qisman bo‘lsa-da e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** masalnavislik, lirik kompozitsiya, masal tabiati, masal qahramonlari, tavsiflanayotgan joy va makon, badiiy komponentlar tizimi, badiiy g‘oya va h.k

## ELBEK – PARABLE WRITER

**Gulshoda Butunboyeva,**

**GulSU 1st year master's student in Literary Studies**

**Scientific supervisor: Prof. O. Fayzullayeva**

### Abstract

This article discusses the fable writing skills of Elbek, one of the creators of the new era. In addition, the artistic features of the fables created by Elbek, as well as their content and essence, are also partially paid attention to.

**Keywords:** fable writing, lyrical composition, nature of the fable, heroes of the fable, the place and space being described, the system of artistic components, artistic idea, etc.

Elbek – Mashriq Yunusov 1898-yil Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanining Xumson qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida dunyoga kelgan. Oilaviy sharoiti og‘ir bo‘lgan Elbek hamda uning qolgan 5 qondoshi ish qidirib turli shahar va qishloqlarga ketadi. Yozuvchi o‘zining sarson-sargardonlikda o‘tgan yoshlik yillarini, og‘ir hayotini shunday ifodalaydi:

Qarol bo‘lib ishladim,

Bit burda non tishladim.

Turmushim kun-kun og‘ir,

Bo‘ldi, yiqildim axir.

Keksa qari otamni

Mungli boyqish onamni

O‘z holiga tashladim.

Shaharga yo‘l boshladim.

Biroq qorin to‘yg‘izish,

Bundan ham og‘ir bo‘ldi.

Kimsalarga sarg‘ayib,

Guldek yuzlarim so‘ldi.

Ammo shunday qiyinchiliklarga bardosh bera oldi, savod chiqardi, Fitratning shogirdiga aylandi, Cho‘lpon she‘rlariga ergashib ijod qildi.

Elbekning ijodi Haydarali Uzoqov, Nurmuhammad Qobulov, Salohiddin Mamajanov, Sherali Turdiyev, Rahmatilla Inog‘omov, Tohir Qahhor, Siddiq Asqarov, Abul Bozorov, Ahmad Aliyev, G‘afurjon Mahmudov, Jo‘ra Xudoyberdiyev, Hilola Zoirova, Gulchehra Aliyev, Ibrohim Rahim, Ashurali Zohiriy, Ulug‘bek Dolimov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Tarixshunos Haydarali Uzoqov Elbekning “Momaguldurak” to‘plamini 1993-yilda, “Tanlangan asarlar”ni 1989-yilda chop ettirdi. Folklorshunos Ulug‘bek Amonov “Armug‘on yolqinlar” to‘plamini 2017-yilda nashr ettirdi.

“Armug‘on yolqinlar” to‘plamida Elbekning 2ta to‘plami 1921-yildagi “Armug‘on” va 1925-yilda nashr qilingan “Yolqinlar” to‘plami arab yozuvidan amaldagi yozuvga tabdil qilinib tahlil qilingan. Elbekning dastlabki to‘plami “Armug‘on”dagi masallar bolalar uchun yaratilgan, bolalarni yaxshilik bilan yomonlikni ajratishga, aql, odob-axloq bilan ish yuritishga qaratilgani bilan diqqatga sazovordir. To‘plamga 17ta she‘r kiritilib ular o‘z ruhiga ko‘ra masallar sanaladi. Ular quyidagilar: “Bir ikki so‘z”, “Qaysi biri bo‘ri?!””, “Kuchsizlar dunyosi”, “Sichqonlar kengashi”, “Quyruqsiz maymun”, “Maymunning qoziligi”, “Jinning olov yoqishi”, “Chol bilan kampir”, “Kim aldanchi?”, “Kampirning tovuqlari”, “Ikki tulki”, “Itlarning o‘rtoqligi”, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa”, “Qo‘ychi bilan bo‘ri”, “Kemachi bilan Hakim”, “Ongli eshak”, “Sichqonning qiz uzatishi”.

Elbek ham:

Ishlamasdan oziq topish,

Baxtli bo‘lish,

Bizcha, tubanlikdir,

Undan yaxshi o‘lish!..

- deya xalqni ezgulikka, mehnatsevarlikka undagan jaded adiblarimizdan biridir. Tarixshunos Haydarali Uzoqov adib ijodining qirralari xususida gapirar ekan, uning birinchi o‘zbek masalnavisi ekanligini o‘sha davrning yetuk adabiyotshunosi A.Sa‘diy mulohazalari bilan tasdiqlaydi: “Masalchilikni Elbek boshlab berdi. Tarjima yo‘li bilan emas, balki masalchilikni tug‘dirish yo‘lini tutdi. Hali bu yo‘lda undan boshqa odam ko‘rinmagan”. Darhaqiqat, Elbek o‘sha davrning ilk masalnavisi edi. Uning barcha

masallari o‘quvchiga nimadir o‘rgatadi, nimadir uqtiradi. Shunday masallaridan biri bu “Olaqarg‘a bilan qurbaqa”. Masal qahramonlari sarlavhadan bizga ma‘lum bo‘ladi.

Olaqarg‘a bir kun ko‘ldan qurbaqani,

Tutib ketdi, yemak uchun suyunib uni.

Borib qo‘ndi bir bog‘chaning butog‘iga,

Boqibgina qurbaqaning har yog‘iga.

Demak, olaqarg‘a bechora, sho‘rtumshuq qurbaqani tutib olibdi. O‘lishiga aql-u farosati yetgan qurbaqajon ziyorlik qilib, tadbirkorlik yo‘lini qilibdi.

Dedi: Ey barcha qushning sen go‘zali,

Dunyoda ko‘rmadim men sendayin qushni.

Qani, bir oz sayrab bergil, men eshitay,

Borliq tovshi bilan og‘zin katta ochdi,

Qurbaqa ham yerga tushib sekin qochdi.

Ko‘rinib turganidek, yozuvchi kitobxonga topqir bo‘lish har qanday vaziyatdan chiqib keta olish ekanligini isbotlagan.

Elbekning “Kemachi ila Hakim” masali ham alohida e‘tiborga loyiq. Masal qahramonlaridan bir zo‘r hakim yer yuzini aylanish maqsadida yo‘lga otlandi. Bir kemaga o‘tirib, kemachi bilan so‘zlashib borayotgan edi:

... Eng so‘nggida so‘z “o‘qush”ga kelib yetgan:

O‘quv – yozuv bilasizmi, ey o‘rtog‘im,

O‘qimag‘anning holi yomon, bizga ma'lum.

O‘qib-o‘rganish haqida gap ketayotgan mahal, dengiz to‘lqinlari kemani to‘ntairishiga oz qoldi:

Kemachi hakim tomon boqib, dedi:

Dengizda suzishni hech bilasizmi,

Dengizda suzishni hech bilmayman.

Yo‘qsa ketmish bor umringiz bo‘sh-bo‘shga,

Rozi bo‘ling siz ham endi bo‘lar ishga.

Qissadan hissa shuki, har doim ham bilimli donishmand bo‘lish insonga qo‘l kelavermaydi, shuning uchun borliqda duch kelishimiz mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarning ehtiyot choralarini ko‘rib qo‘ymoqlik hech zarar qilmaydi. But haqida o‘ylab ko‘rmagan zo‘r hakim suzishni bilmaganligi sababli dengiz to‘lqinlari oldida chorasiz qoldi.

Bolalar ruhiyatini qalbdan his qila olgan yozuvchining xalq og‘zaki ijodiga xos motivni zamonaviy talqinda ifodalay olgan yana bir masali – “Sichqonxonning qiz uzatishi”.

Asar markazida sichqonlar oilasi va ularning qiz uzatish sahnasi turadi. Sichqonxon o‘z suluv qizini dunyodagi eng qo‘qmas, kuchli, kelishgan tadbirli bir yigitga

uzatmoqchi bo‘ladi. Ular ushbu niyatda ko‘pchilikning huzurida bo‘lishadi. Dastlab Quyoshga murojaat qilishadi:

Yolg‘iz sizmish bu dunyoda

Oshiqlardan kuchlilikda bittagina.

Quyosh:

Men kuchsizman, ko‘kda bo‘lgan bu bulutdan,

Oldim to‘ssa qutulolmam hech undan.

Shundan so‘ng ular Bulutga borishadi, Bulut esa Shamolni kuchli deb ko‘rsatadi, Shamol esa Tog‘ni...

Biroq yakunda Tog‘:

Qayda menda topilsun kuch,

Sirtim butun bo‘lg‘an bilan ichimdur puch,

Chunki mening ichimni bir yigit sichqon.

Ko‘pdan beri kovlab katta uya qurgan.

Kovlay bersa, ul har kuni agar shunday,

Tez kun ichida yurolmayin yiqilaman.

Masal so‘nggida Sichqonxon qizini o‘sha o‘z turiga mos sichqon yigitga uzatadi. Ushbu masalda chuqur ramziy ma‘no yotadi. Asarda hayotiy haqiqat har kim o‘z turiga munosib bilan hayot qurishi lozimligi haqida ibratli g‘oya ilgari suriladi. Masal orqali yozuvchi me‘yor va mantiqqa asoslangan tanlov muhimligini uqtiradi.

Xulosalaganda, Elbek masallarida ramziy ifoda, badiiy vositalarning sodda, ammo chuqur ma‘noli qo‘llanilishi orqali yuksak axloqiy-falsafiy g‘oyalari ilgari suriladi. Bu masallar o‘quvchini teran fikrlashga, tadbirli bo‘lishga, o‘zlikni anglashiga o‘rgatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev A. Elbek va davr adabiy jarayoni. // “O‘zbekiston san‘ati” gazetasi, 1989.
2. Amonov U. S. Armug‘on yo‘lqinlar. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
3. Elbek. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
4. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. *Science and innovation*, 1(B5), 231-236.
5. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. *Уевразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 55-60.
6. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. *Theoretical&Applied Science*, (4), 627-633.
7. Mamatkulov, M.,&Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
8. Qobulov N. Elbek. – Toshkent: Fan, 1988.
9. Saylanma / Elbek. Nashrga tayyorlovchi Muslimbek Alijonov. – Tashkent: Zabarjad media, 2025.
10. Xolbekovna, F. O. (2021). Poetics of Uzbek Cycle Sonnets. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 394-402.

## МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОК НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА

Термезский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры  
педагогике и инклюзивного образования

**Холова Мохигуль Шавкатовна**

### Аннотация

В данной статье научно-теоретически анализируется модель развития критического мышления у студенток на основе гендерного подхода. В исследовании рассматриваются педагогические и психологические основы формирования критического мышления, внедрение принципов гендерного равенства в образовательный процесс, а также возможности развития у студенток навыков самостоятельного принятия решений, анализа проблемных ситуаций и повышения социальной активности. Предлагаемая модель направлена на повышение эффективности образования, обеспечение гендерного равенства и развитие интеллектуального и личностного потенциала студенток на основе интеграции теоретических подходов и практических механизмов.

**Ключевые слова:** Гендерный подход, студентки, критическое мышление, педагогическая модель, психологические факторы, самостоятельное принятие решений, социальная активность, инновационное образование, гендерное равенство, интеллектуальный потенциал

В условиях глобализации повышение интеллектуального потенциала студенческой молодежи, в частности студенток, и развитие у них навыков самостоятельного и критического мышления является одним из приоритетных направлений государственной политики. В Республике Узбекистан принят ряд нормативно-правовых документов, направленных на обеспечение гендерного равенства, защиту прав и интересов женщин, а также стимулирование их активного участия в научной и общественной жизни. В частности, Закон Республики Узбекистан от 2 сентября 2019 года «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» закрепил гендерное равенство как один из приоритетов государственной политики.

Кроме того, в «Стратегии обеспечения гендерного равенства в Республике Узбекистан на 2020–2030 годы», утвержденной постановлением Президента от 7 марта 2020 года № ПП–4653, особое внимание уделяется интеллектуальному развитию девушек и формированию у них навыков самостоятельного мышления. Закон «Об образовании» (2020) и указы Президента о развитии науки и

инноваций создают широкие возможности для применения современных педагогических и психологических подходов в образовательном процессе, направленных на развитие творческого и критического мышления молодежи.

Особенно актуальной задачей становится применение гендерного подхода в системе высшего образования, что позволяет формировать у студенток навыки самостоятельного принятия решений, анализа проблемных ситуаций и оценки различных точек зрения.

Проблема развития критического мышления у студенток на основе гендерного подхода рассматривается как одна из актуальных научных задач современной педагогики, психологии и социальных наук.

Критическое мышление способствует:

- самостоятельному принятию решений;
- анализу информации;
- поиску альтернативных решений;
- осознанному отношению к социальным процессам.

Гендерный подход предполагает учет социально-психологических, культурных и правовых различий между юношами и девушками, а также создание равных условий для раскрытия потенциала студенток.

Особое значение имеет преодоление гендерных стереотипов и формирование у девушек активной жизненной позиции. Модель развития критического мышления у студенток включает несколько ключевых компонентов:

### **1. Мотивационный компонент**

Формирование внутренней потребности в критическом мышлении, стимулирование интереса к обучению и социальной активности.

### **2. Содержательный компонент**

Включение в образовательные программы элементов анализа, проблемных ситуаций, сравнений различных точек зрения и аргументированного вывода.

### **3. Методико-практический компонент**

Использование интерактивных методов:

- дебаты,
- дискуссии,
- кейс-стади,
- мозговой штурм.

#### **4. Результативный компонент**

Оценка уровня сформированности критического мышления, социальной активности и способности к самостоятельному принятию решений.

Теоретической основой модели являются идеи:

таксономии Блума, концепции Дж. Дьюи, критической педагогики П. Фрейре. Международный опыт показывает, что в странах, таких как США, Канада, Великобритания и страны Скандинавии, гендерное равенство является важным элементом образовательной политики.

В учебные программы включены курсы:

Gender Studies , Critical Thinking , Analytical Communication

В Узбекистане также реализуются:

- научные конференции,
- тренинги,
- программы наставничества для студенток.

С точки зрения психологии, развитие критического мышления связано с: когнитивным развитием, мотивацией, социальной средой.

Теории Ж. Пиаже и Л. Выготского подтверждают, что студент должен быть активным участником образовательного процесса.

Преподаватель выступает не только источником знаний, но и наставником и партнером в обучении.

Проведенный анализ показывает, что развитие критического мышления у студенток на основе гендерного подхода является важным фактором не только образовательного процесса, но и социального развития общества.

Данная модель способствует:

- повышению интеллектуального потенциала;
- развитию самостоятельного мышления;
- формированию социальной активности;
- укреплению гендерного равенства.

Использование интерактивных методов, современных технологий и создание благоприятной образовательной среды позволяет эффективно реализовать данный подход.

Таким образом, предложенная модель имеет важное научно-практическое значение и способствует формированию активной, самостоятельной и социально ответственной личности.

#### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY

THINKING IN STUDENTS. Academic research in educational sciences, 2 (6), 54-57.  
doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083

2. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.

3. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.

4. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.

5. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.

6. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.

7. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.

8. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.

9. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G 'AZZOLIY ASARLARIDA "YOLG 'ON SO 'ZLASH VA YOLG 'ON QASAM ICHISH" YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.

10. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.

11. Ismoilova Durдона G'Ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O'RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269

12. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.



## **TABLE OF CONTENTS**

<b>1</b>	<b>COMPATIBILITY OF TRADITIONAL AND INNOVATIVE APPROACHES IN EDUCATING PRIMARY STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT</b> Ikromova Mahbuba Vali qizi	<b>3-11</b>
<b>2</b>	<b>“SHAHNISABZ” DAVLAT MUZEY QO’RIQXONASIDA “SOHIBQIRON AMIR TEMURNING TUG’ULISHI.” SURATIGA OID BILIMLAR.</b> Xushvaqtova Lobar Oqbutayevna	<b>12-17</b>
<b>3</b>	<b>ARTHROSPIRA PLATENSIS SUVO‘TINING BIOMASSA MIQDORIGA PAST HARORATNING TA’SIRI</b> Qobilov Aziz Muxtorovich, Ikromova Hafiza Salim qizi	<b>18-22</b>
<b>4</b>	<b>ELBEK – MASALNAVIS</b> Gulshoda Butunboyeva,, O.Fayzullayeva	<b>23-26</b>
<b>5</b>	<b>МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОК НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА</b> Холова Мохигуль Шавкатовна	<b>27-30</b>